

## **10- Mavzu.G'allachilikni tashkil etish va optimal yuritish.**

### **Reja:**

- 1.G'alla yetishtirishni ko'paytirishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati.
- 2.G'allachilikda yuqori xosil olishning asosiy omillari.
- 3.G'alla yetishtirishni tashkil qilish.
- 4.Sholi etishtirishni tashkil etish.
- 5.G'allani almashlab ekishni tashkil etish.

**Tayanch iboralar:** almashlab ekish, davlat buyurmalari, dehqonchili tizimi, hosildorlik, ichki milliy mahsulot, iqtisodiy samaradorlik, texnologik xarita.

### **Foydalangan adabiyotlar.**

#### **Asosiy adabiyotlar**

1. Samatov G.A., Yodgorov J.Yo., Rustamova I.B. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish. Darslik. «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi». - Toshkent: ToshDAU taxririyyat-nashriyyot bo'limi, 2005. - 508 b.
2. Samatov G.A., Rustamova I.B. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish. Ma'ruza matni. - Toshkent: ToshDAU taxririyyat-nashriyyot bo'limi, 2008. - 120 b.
3. Samatov G.A., Rustamova I.B., Gaybullayev O.B. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish fanidan amaliyot darslari uchun uslubiy ko'llanma. - Toshkent: ToshDAU taxririyyat-nashriyyot bo'limi, 2008. - 120 b.
4. Jo'rayev F. Qishloq xo'jalik korxonalarida ishlab chiqarishni tashkil etish. Darslik. - Samarqand: Samarqand qishloq xo'jalik instituti, 2004y.
5. Xakimov R., Yusupov E.D. "Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti". O'quv qo'llanma. Toshkent-2004 y.

#### **Xorijiy adabiyotlar:**

6. Agrarmanagement Jens Pape, Clemens Morath, Reiner doluschitz ISBN-10:3-8252-3587-4, EAN:978382523587
7. Barrick, R. K. Harmon, H. L. Animal Production and Management Ed: Gregg Division McGraw-Hill (1988-02-01) ISBN 10: 007003852X / ISBN 13: 9780070038523
8. Connor, D. J.; Loomis, R.S.; Cassman, K.G. 2011. Grop Ecology. Productiviti and Management in Agricultural Systems. University Press ISBN: 9780521744034.
9. Modernes Agrarmanagement: Betriebswirtschaftliche Analyse-und Planungsvefahren MuBhoff, Hirschauer (2013) 3. Auflage, Vahlen-Verlag, Munchen.

#### **Qo'shimcha adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 22 oktyabr 2012 yildagi «O'zbekistonda fermerlik faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish va uni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-4478- sonli Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 29 sentyabrda Namangan viloyatiga 29-30 sentyabr kunlari Farg'ona viloyatiga tashriflari chog'ida bergan topshiriqlari bo'yicha chora-tadbirlar.
3. Abdug'aniyev A., Abdug'aniyev A.A. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. - T.: «O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot Jamg'armasi», 2004. - 346 bet.
4. Komiljonov B.I. Innovasiyaviy menejment uslublarini takomillashtirish. - Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "Fan" nashriyyoti, 2007.
5. Samatov G'.A, Yodgorov J.Yo, Rustamova I.B. Qishloqda zamonaviy bozor infratuzilmasini kompleks rivojlantirish va servis xizmatini tashkil etishning asoslari (fermerlar tayyorlash va qayta tayyorlash bo'yicha biznes maktablar tinglovchilari uchun qo'llanma).-T.:ToshDAU taxririyyati 2004y.
6. Umurzoqov U.P. va boshq. Fermer xo'jaligi iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. - T.: "Iqtisod-moliya", 2007. - 276 b.

7. Farmonov T.H. Fermer xo'jaliklarini rivojlantirish istiqbollari. - T.: «Yangi asr avlodi», 2004. - 144 s.
8. Shakirov F.K., Korolev Yu.B., Pastuxov A.K. i dr. Organizatsiya sel'skoxozyaystvennogo proizvodstva i menedjment: uchebnik dlya vuzov. - M.: Kolos OOO, 2008. - 607 s.

### **10.1 G'alla yetishtirishni ko'paytirishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati.**

G'alla asosiy oзуqа mahsuloti bo'lganligi uchun O'zbekistonda don yetishtirishni keskin ko'paytirishga katta e'tibor berilmoqda. Donchilik qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining eng muhim sohalaridan biridir. Dala ekinlari balansida, donchilikning ulushi juda katta. Jahon mamlakatlarida donli ekinlardan ko'p tarqalgani bug'doy, sholi, makkajo'xori, arpa, jo'xori, tariq, suli, javdardir.

Donli ekinlardan bug'doy bilan sholini aholi ko'p iste'mol qiladi. Yer yuzasidagi aholining 70 foizi bo'g'doy, 30 foizi sholi mahsulotini iste'mol qiladi.

Donli o'simliklar o'zida inson organizmi uchun zarur bo'lgan oqsil moddasini va uglevodni ko'p saqlaydi. Bo'g'doyning kimyoviy tarkibida 13,6 foizini suv, 16,8 foizini oqsil moddasi, 63,8 foizini uglevod, 2 foizini yog' va boshqalar tashkil qiladi. Shuningdek donli o'simliklarning tarkibida fermentlar va V vitaminlari majmuasi (V1, V2, V6), RR va provitamin A bor.

Mamlakatimizning sug'oriladigan yerlarida boshoqli g'alla ekinlarining o'rtacha hosildorligi 35-40 sentnerni, makkajo'xori doni 40-50 sentnerni tashkil etadi. Sholining o'rtacha hosildorligi 3538 sentnerni tashkil etadi.

Kelgusida sholi maydoni birmuncha qisqarishi, hosildorligi esa keskin oshirilishi ko'zda tutilmoqda. Lalmikor yerlardan olinadigan bug'doy va arpa hosili o'rta hisobida 8-12 sentnerni tashkil etmoqda.

Shuni alohida ko'rsatib o'tish joizki, lalmikor yerlarda ko'plab ekiladigan bug'doy va arpa ekinlari kuzda ekilganida bahordagiga qaraganda ancha yuqori hosil beradi.

Ma'lumki kattiq va kuchli bug'doy donining bahosi oddiy bug'doynikiga qaraganda yuqoridir. Shunday ekan, intensiv texnologiyani keng joriy etish asosida ko'plab kuchli hamda qattiq bug'doy yetishtirish katta iqtisodiy ahamiyat kasb etib, xo'jaliklarning daromadini ko'paytirishda, makaron, konditer va oziq-ovqat sanoatini sifatli xomashyo bilan ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Shuni alohida ko'rsatib o'tish kerakki, O'zbekistonning janubiy, janubiy-g'arbiy hamda markaziy tumanlarida tabiiy iqlim sharoitida kuchli va qattiq bug'doydan mo'l, sifatli hosil olish imkoniyati juda katta. Bunda maxsus ekishga tumanlashtirilgan yuqori sifatli serhosil navlarning sara urug'larini ekish va yuqori agrotexnikani qo'llash maqsadga muvofiqdir.

G'alla yetishtirishni ko'paytirishning bosh yo'li-g'allachilikni intensiv asosda olib borishni taqozo etadi.

***Kuzgi ekinlar. Kuzgi ekinlar odatda kuzda ekiladi va hosili kelgusi yili yig'ishtirib olinadi. Kuzda ekiladigan ekinlar bir yillik bo'lib yaxshi hosil beradi. Kuzgi ekinlarning bahorgi ekinlardan asosiy farqi uning yarovizasiyasidadir. Kuzgi don ekish o'simliklarning nisbatan past haroratda uzoq vaqt yarovizasiya holatini kechirishi uchun ekiladi. Kuzgi don urug'ini bahorda ekish yaxshi samara bermaydi, chunki urug' uzoq yarovizasiya bosqichini boshidan kechirolmay qoladi, juda katta ildiz tizimini hosil qiladi va tuproq tagida vegetasiya jarayoni kechiriladi, barg hosil bo'ladi, hosil kurtagi kam, biroq urug' beradigan qismi shakllanmaydi va ekin hosil bermaydi.***

Kuzgi ekiladigan ekinlar ichida kuzgi bug'doy, kuzgi javdar va kuzgi arpaning ulushi katta. Bug'doydan eng qimmatli oziq-ovqat mahsulotlari tayyorlanadi. Bug'doy yetishtirishga shu boisdan ham dunyo dehqonchiligida katta o'rin berilgan.

Bug'doy tarkibida inson organizmi uchun zarur bo'lgan ko'pgina foydali moddalar mavjud bo'lib Xalqaro standartga ko'ra bug'doy tarkibida 13,5 foizi oqsil beradi. Bug'doy tarkibida oqsil ko'p bo'lishiga iqlim sharoiti, tuproqning tuzilmasi va mineral o'g'it katta ta'sir ko'rsatadi.

Bug'doy yetishtirishning chorvachilikda ham ahamiyati katta. Bug'doy donining chiqindisi

va bug'doy somoni chorva mollari uchun yaxshi ozuqa hisoblanadi. Shuningdek uning somonidan qog'oz mahsulotlari tayyorlanishi mumkin.

**Kuzgi bug'doy.** *Kuzgi bug'doyning urug'i harorat +1, +2 S<sup>0</sup> daraja bo'lganda unib chiqqan boshlaydi va uning maysalari paydo bo'lishi uchun harorat 12-15 S<sup>0</sup> daraja bo'lishi kerak. Sug'oriladigan hududda kuzgi bug'doyning erta kuzda ekilgan urug'i 7-10 kunda, kech kuzda ekilgan urug'i esa 2040 kunda ko'karib chiqadi.*

Kuzgi bug'doyning gullash davri 3-5 kun, donining ho-sil bo'lishi, uning to'lishishi va pishib yetilishi bug'doy naviga qarab o'rtacha 30 kun davom qiladi. Kuzgi bug'doy gurkirab o'sayotgan, naychaga o'raladigan va boshqoq chiqaradigan davrlarida ko'p namlik talab qiladi. Shundan keyingi davrlarda suv sarfi kamayadi, ammo bu sarf donlarning dumbul pishish davrigacha ko'pligicha qoladi.

**Bahorgi bug'doy.** *Bahorgi bug'doy dunyo dehqonchiligida juda keng tarqalgan qimmatbaho donli ekindir. U shimoliy qutb doirasidan tortib, toki Afrika va Amerikaning eng janubiy chegaralarigacha yeti shti ri l adi.*

Bahorgi bug'doy O'zbekistonning Samarkand, Toshkent, Sirdaryo, Buxoro va Surxondaryo viloyatlarining tog' bilan tutash hududlarida-to'lqinsimon past-balandliklarda, lalmikor yerlarga ekiladi.

Bahorgi bug'doyning bo'yi past, boshog'i va doni maydaroq bo'lib, ancha sekin to'planadi va o'rta hisobda 1,2-1,5 boshqoqlaydigan poya hosil qiladi. Uning ildizi kam rivojlangan bo'ladi va shuning uchun unumdor tuproqqa talabchan. Erta ekilgan bahorgi bug'doy (fevral-mart) 15-20 kun ichida 1-2 daraja issiqlikda unib chiqadi. Uning maysalari 15-20 daraja issiqda yaxshi rivojlanadi.

Bahorgi bug'doy kuzgiga qaraganda kech pishadi va shuning uchun qurg'oqchilikka duch keladi. Natijada hosil kamayadi va don puch bo'lib qolishi mumkin.

**Makkajo'xori.** *Makkajo'xori qimmatli serhosil donli ekindir. Uning xo'jalikda ahamiyati xilma-xil. U chorva mollariga yem, kishilarga oziq-ovqat bo'ladi va texnikada qayta ishlash uchun xomashyo hisoblanadi.*

Makkajo'xorining tarkibida 13 foizi suv, 9,7 foizi oqsil, 4,5 foizi yog', 68,9 foizi kraxmal, 2,4 foizi sellyuloza, 1,5 foizi vitaminlar bor. U yem jihatidan barcha donli ekinlardan afzal: 1 kilogramm makkajo'xori donining oziqlik qiymati 1,35 ozuqa birligiga teng.

Makkajo'xorining vegetasiya davri navlariga qarab 85 kundan 160 kungacha davom qiladi. U ancha issiqsevar o'simlik. Makkajo'xorining unib chiqishi uchun harorat 8-10 daraja bo'lsa me'yorda hisoblanadi, goho urug' 20-25 daraja issiqlikda ham unib chiqadi. Urug'dan chiqqan maysalar haroratning minimal ko'rsatkichi 3 daraja bo'lsa chidaydi, aks holda yosh maysalarni sovuq uradi.

Makkajo'xori qurg'oqchilikka chidamli bo'lib, namni tejab sarflaydi. Maysalar o'sish vaqtida o'z tanasidagi 40-50 foiz suvni iste'mol qiladi. Hosilga kirayotgan paytda namga talabi ortadi. Sizot suvlari chuqur bo'lgan yerlarda makkajo'xorining sug'orish me'yori gektariga 800-1200 kubometrni tashkil qiladi.

Makkajo'xorini ko'pgina (masalan, paxta, don va don-dukakli ekin) ekinlardan keyin ekib bo'ladi. Tuproqda nam yetarli bo'lsa va sug'orish, o'g'itlash ishlari to'g'ri yo'lga qo'yilsa, makkajo'xoridan kutilgan hosilni olish mumkin.

Makkajo'xori yerdan ko'p oziq moddalar-mineral o'g'it oladi. Makkajo'xoridan rekord hosil olingan xo'jaliklarda har bir gektar yerdan o'simlik o'z vegetasiyasi davomida 130-180 kilogrammdan azot, 50-60 kilogrammdan fosfor va 150 kilogramgacha kaliy oladi. Bu narsa o'z navbatida tuproqni kuchsizlantiradi, unga ko'proq mineral va organik o'g'it solishni taqozo qiladi.

Urug'ni ekish oldidan har bir gektar yerga o'g'itlovchi kultivatorlar bilan 25-30 kilogramm sof azot, 25-30 kilogramm fosfor sochiladi. Ekin ekilgandan keyin qatorla-riga oz miqdorda bo'lsa ham o'g'it va go'ng berilsa hosildorlik oshadi.

Makkajo'xori 60 yoki 70 santimetr sxemada seyalkalar bilan ekiladi. Ekish sxemasiga qarab gektariga 15 kilogrammdan toki 30 kilogramgacha urug' sarflanadi. Urug' 8-10 santimetr

chuqurlikka tashlanadi. Makkajo'xori maysasiga ishlov berganda KRN-4-2, NKU-4-6, KRX-4, KRN-2,8A markali kultivatorlar ishlatiladi.

***Dukkakli ekinlar. Dukkakli ekinlarning don balansida ulushi salmoqli. Bu ekinlar oqsilga juda boy (tarkibida o'rtacha 25%dan 40%gacha oqsil bo'ladi) bo'lib, oqsilning ko'pligi jihatidan donli o'simliklardan 1,5-2 marta ustun turadi. Ayrim dukkakli ekinlar (masalan, soya) tarkibida yog' ko'p.***

Dukkaklilarga no'xat, loviya, soya, yasmiq, china, mosh, nut, lyupin, yeryongoq kiradi. Dukkakli ekinlar turidan oziq-ovqat mahsuloti olishda, yem-xashak tayyorlashda foydalaniladi. Dukkakli ekin tuproqni azot moddasi bilan boyitadi. Ularning ildizida tuganaklar hosil bo'lib, bularda azot bog'lovchi bakteriyalar yashaydi.

Poyasi o't poya yoki yog'ochsimon, yotib o'suvchi yoki tik o'suvchi, tukli yoki silliq bo'ladi.

Dukkakli ekinlar havo haroratidan, namlik, tuproq va boshqa tabiiy sharoitlardan turlicha ta'sirlanadi. Masalan, no'xat urug'i havo haroratining minimal ko'rsatkichi Q1, Q2 S<sup>0</sup> daraja issiq bo'lganda unib chiqadi, uning maysalari havo harorati -7, -8 S<sup>0</sup> daraja, sovuq bo'lganda qattiq zararlanadi, o'sish davri tabiat hududlari va ekin naviga qarab 60 kundan 100 kungacha davom etadi.

G'alla mahsulotlari ishlab chiqarishni tashkil etish va uning samaradorligi joy iqlim sharoitlari, g'allaning oziq-ovqat, texnik yoki yem-xashak maqsadlarida yetishtirilishi, kuzgi va lalmi ekinlarning nisbati, qo'llaniladigan texnologiya, mehnat va moddiy vositalar bilan ta'minlanishiga ko'p jihatdan bog'liqdir.

## **10.2 G'allachilikda yuqori hosil olishning asosiy omillari.**

G'allachilikda yuqori hosil olishda ma'lum bir omillarga tayaniladi.

G'alla ekishda urug' sarfi mutaxassislar tomonidan qattiq nazorat qilib boriladi va faqat 1-darajali urug' ekiladi. Har bir gektar maydonga 250 kg. urug'lik tushishi ta'minlanadi.

G'alla ekish asosan sentyabr oyining ikkinchi dekadasidan boshlanib, oktyabr oyining 20-lariga tugallanadi. Ekilgan g'alla maydonlari zudlik bilan 70-80 metr dan ko'ndalang o'q ariqlar olinib, sug'oriladi, 2-4 barg paydo bo'lgan davrda g'allaning holatiga qarab ayrim maydonlar gektariga 120130 kg. dan karbomid o'g'iti bilan oziqlantiriladi.

Bahorda, ya'ni tuplash va naycha chiqarish davrida bug'doyning azotli o'g'itlarga o'ta talabchanligini hisobga olib 2 marotaba oziqlantiriladi. Shuning bilan birga barcha maydon chetlarida sharbat chuqurlari kovlanib, go'ng solinib, sharbat bilan ham oziqlantiriladi.

***Ikkinchidan, paykallarga o'g'it berish va Begona o'tlarga qarshi kurashish-gerbisidlar purkash va o'toq qilish bilan olib boriladi.***

***Uchinchidan, o'simliklarni har xil kasalliklardan zararlanishini oldini olish lozim.***

***To'rtinchidan, xo'jaliklar ekinlarni payxon qilinishiga qarshi kurash choralarini to'g'ri yo'lga qo'yishi lozim.***

***Beshinchidan, yetishtirilgan g'allani qisqa vaqtda nobudgarchilikka yo'l qo'ymasdan o'rib olishi lozim.***

***Oltinchidan, xo'jaliklar g'allachilikning bugungi kuni bilangina chegaralanib qolmasdan, uning ertangi kuni, istiqboli bilan shug'ullanishi ham ilmiy asosda yo'lga qo'yilishi lozim.***

G'alla ishlab chiqarish, yetishtirish texnologiyasida ishlarning ikki asosiy davri mavjud:

- yer maydonini tayyorlash va ekishga tayyorlash,
- hosilni yig'ib olish bo'yicha barcha ishlar tadbiri( bu ishlar mehnat xarajatlarining 60-70 foizni tashkil qiladi).

Respublikamiz sharoitida g'alla yetishtirish deyarli to'liq mexanizatsiyalashtirilgan. Bu ishlarni sifatli va o'z vaqtida bajarish ishlab chiqarishning pirovard natijalarini belgilaydi. Ammo bu ishlarni amalga oshirish katta energetik xarajatlarni talab qiladi. Masalan, yer maydonlarini shudgorlashning o'ziga dala ishlari umumiy xarajatining 1/3 qismi sarf bo'ladi.

Yer maydonlarini tayyorlash asosan ang'izlarni haydash, shudgorlash, yerga ekishdan avval ishlov berishdan iborat.

G'allachilik bir qator texnologik jarayonlarni o'z ichiga oladi ularni tashkil etish tartibi 10.1-Rasmda keltirilgan.

Ang'izlar odatda diskli pluglarda 4-8 sm, tishli pluglarda 8-14 sm. chuqurlikda haydaladi. Turli ildiz qoldiqlari bilan qoplangan maydonlarda tishli pluglardan foydalaniladi. Maydonlarda agregatlar va mashinalarning harakati xo'jalikning mavjud sharoitlari, dalalarning o'lchamlari va shakllariga qarab aniqlanadi.

Har qanday holatlarda traktorlar quvvatidan maksimal foydalanish hamda agregatlarning eng qulay harakatlani-shini ta'minlash talab etiladi. Alohida paykallarda ikki agregatning baravar ishlashi samarali natija beradi

Paykal o'lchami hych bo'lmaganda smena davomida agregatning erkin harakatini ta'minlashi kerak. Agregatlarning ikki smenada ishlashini tashkil etish, tungi paytlarda ularni ishonchli va yetarlicha yorug'lik bilan ta'minlash ham muhim ahamiyatga ega.

***Shudgorlash va yerni yumshatish (ag'darmay haydash) ishlari tuproqda yetarlicha namlikni, ozuqa moddalarini to'plash, simliklarning tomir tizimlarini rivojlantirishga qaratilgan. Bu jarayonlarda agregatlarning guruhli ammo har biri o'z paykalida ishlashi tavsiya qilinadi.***

Cho'l va lalmikor tumanlarda tuproq yemrilishiga qarshi majmuaviy tadbirlar tizimini bajarish va shunga muvofiq mashinalar bilan ta'minlash hosil uchun kurashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu tadbirlar hozir respublikamizning cho'l va dasht hududlarida keng qo'llanilmoqda.

Yer maydonlarini chuqurliklarda ag'darmay haydash uchun hozirda turli tipdagi tekis qirquvchi hamda chuqur haydovchi plugli zamonaviy agregatlardan foydalanilmoqda.

***Ekish ishlari umumiy mehnat sarfining 10-15%ni tashkil qilsada, uni eng qisqa muddatlarda juda sifatli o'tkazishni talab qiladi. Tajribalar bu tadbirda mashinalardan foydalanishning umumiy - guruhli shaklini tashkil etish katta ustuvorlikka egaligini ko'rsatdi. Bunda umumiy texnologik guruh yetakchilik rolini bajaradi. U boshqa zvenolarning bir tekis ishlashini belgilab beradi. Bunday holatda ekish zvenosi bevosita yetakchi hisoblanadi. Ekish agregatlari ritmi - tayyorgarlik, yuklash va urug'larni jo'natish, tuproqqa ekishdan avval ishlov berish tadbirlarini qamrab oladi.***

Bu ritm ma'lum bir vaqt birligida bajarilgan ish hajmi bilan ifodalanadi. Agar 5 kunda, kuniga 20 soatlik, jami 100 soatlik, ikki smenali ish tashkil etilganda, 1000 ga. maydonga urug' qadash kerak bo'lsa, unda bir soatlik ritm 10 ga.ni, sutkalik ritm - 200 ga.ni tashkil qiladi. Agar har gektar yer maydoniga 2 s.dan urug' ekilsa, butun maydon uchun 2000 s. urug' g'amlanishi zarur. Dalaga har soatda 20 s.urug' yetkazib berilishi kerak. Bir sutka davomida 400 s.ni tashkil qiladi. Yer maydonini ekishga tayyorlashda ham ish ritmi shunga o'xshab belgilanadi.

G'alla mahsulotlarini ekish, odatda, gusenisali - zanjirli traktorlarda turli tiplardagi seyalkalar - urug' qadovchi agregatlar bilan amalga oshiriladi.

O'zbekiston sharoitida ekish jarayonlarida SZS-2,1K, SZS-2,1M tipidagi seyalkalar - urug' qadovchi agregatlar juda yaxshi samara beradi.

Cho'l va lalmi tumanlarda bir traktorga 3-4 va undan ham ortiqroq seyalkalardan foydalaniladi. Umuman, tabiiy sharoitlar, yer maydonlarining o'ziga xosliklaridan kelib chiqib, eng qulay seyalkalardan foydalangan ma'qul.

Ekish agregatlarini urug' bilan ta'minlashda avto-yuklovchilardan foydalanish juda samarali bo'ladi. Agregatlarni urug' yoki o'g'itlar bilan ta'minlash odatda burilish maydonlaridan birida amalga oshiriladi. Avtoyuklovchi vositasida bitta ekish agregatini urug' bilan ta'minlash muddati uch daqiqadan oshmasligi kerak. Urug'larni 5-6 km. masofadagi maydonlarga tashilganda avtoyuklovchi uch seyalkali agregatlarga xizmat ko'rsatadi, masofa urug' saqla-nadigan bazalardan ancha uzoq bo'lganda, avtoyuklovchi bitta - ikkita uch seyalkali agregatlarga xizmat ko'rsatishiga to'g'ri keladi.

***Hosilni nes-nobud qilmay, eng qisqa muddatlarda yig'ish-tirib olish - g'alla ishlab chiqarishdagi eng ko'p mehnat talab qiladigan va ma'suliyatli jarayondir. Bunda mamlakatimizning barcha viloyatlarida bevosita kombaynlashtirishdan foydalaniladi. Ammo viloyat sharoitlari va yil iqlimlarining o'ziga xosligi hamda hosilning holati mehnat hajmlari nisbatiga ta'sir ko'rsatadi.***

Hozirda g'allani yig'ib olish, yanchish yoki to'g'ridan-to'g'ri kombaynlashtirish uchun i'aeatimizning g'alla yetishtiriladigan tumanlarida SK-5A, "Niva", SKD - 6 "Sibiryak", "Don-1500", Don -1200", "Yenisey" kombaynlaridan foydalaniladi.

G'alla o'rimi boshlanishidan 5-10 kun avval xo'jalikning bosh agronomi rahbarlik qiladigan maxsus guruh har bir dalani tekshirib chiqadi, o'rim muddatlarini, o'simliklarni qanday balandlikda o'rish usullarini aniqlaydi.

O'rimning alohida usulida o'tkazilganda o'rim muddatlari qisqarib g'alla sifati yaxshilanadi.

Hozirda O'zbekistonning barcha viloyatlarida g'allani kombaynlashgan usulda o'rish joriy qilingan. Bu usul past bo'yli siyrak g'allazaorlarda ham samarali natijalar beradi. Ma'lumki, Respublikamiz sharoitida lalmikor yerlar g'allasi ko'pincha past bo'yli bo'ladi.

Hosilni yig'ishtirib olish dalani o'rimga tayyorlashdan boshlanadi. Buning uchun mashinalarning ishlashiga xalaqit beradigan to'siqlar kartalarda belgilanadi, iloji bo'lsa butunlay olib tashlanadi, maydon paykallarga ajratilib, marzalar ko'mib chiqiladi, agregatlarning burilish doiralari, transport yo'llari tayyorlanib, paykallar orasi yong'inga qarshi shudgor qilinadi.

***Alohida o'rim o'rilgan boshhoqlarni g'aramlarga to'plashdan boshlanadi. Bunda o'rim mashinalari shudgor yo'nalishiga mos, ekin yo'nalishiga nisbatan ko'ndalang bo'lishi kerak. Bunday o'rish usulida o'rim mashinalari g'allani o'rib o'tgach, g'allaning nobud bo'lishi boshhoqlar tik o'sgan joyda 0,5%, yotib qolgan joylarda 1,5 foizdan oshmasligiga harakat qilishi kerak. Paykallarning eng yuqori o'lchamlari, chegaralari g'allani o'rib olib g'aramlash va yanchishda mehnatning yuqori samarali bo'lishini ta'minlashi zarur.***

Alohida o'rish usulida to'plangan g'alla g'aramlarini yig'ishtirish va yanchish ular qurigandan so'ng, odatda o'rim tugagach 3-5 kundan so'ng boshlanadi. G'aramlarni yig'ishtirish va g'allani yanchishda ham agregatlarning guruhli usul bilan ishlashlari tavsiya etiladi. Guruhdagi yanchish kombaynlarining soni bir transport birligida ifodalanadigan bunkerlar soniga muvofiq bo'lishi kerak. Bunday holatda guruhdagi texnika va transport vositalarining bir tipdagi kombaynlar va bir tipdagi mashinalardan tashkil topishi muhim ahamiyatga ega.

Qayd etish kerakki, mamlakatimizda alohida o'rish usuli g'allachilikka nisbatan sholichilikda kengroq qo'llaniladi.

Yirik qishloq xo'jaligi korxonalarida yetarlicha vosita va texnikalarning mavjudligida g'alla mahsulotlarini yig'ishtirib olish davrida vaqtinchalik yig'im-transport majmualarini tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Bu majmua asosan quyidagi zvenolardan tashkil topadi:

- ekin maydonlarini o'rimga tayyorlash guruhi;
- kombayn - transport zvenosi;
- hosilning g'allasiz qismi(somon, pohl)ni yig'ishtirish guruhi;
- tuproqqa dastlabki ishlov berish guruhi;
- texnik xizmat ko'rsatish zvenosi;
- madaniy- maishiy xizmat ko'rsatish guruhi.

Yig'im- transport majmuasi va uning zvenolarining katta-kichikligi har bir xo'jalikdagi ishlab chiqarishning mavjud shart-sharoitlariga qarab aniqlanadi. Bunda umumiy o'rim maydonlari miqdori, hajmi, g'alla maydonlari bilan xirmonlargacha bo'lgan masofa, xo'jalikda mavjud traktorlar, kombaynlar, transport vositalari va boshqa qishloq xo'jaligi texnikasi turlari soni, ishlash quvvatlari alohida-alohida hisobga olinadi.

***Bevosita kombaynlashgan o'rim usuliga g'alla dalalaridagi boshhoqlarning asosiy qismi, ya'ni kamida 95 % to'la pishib yetilgandagina kirishiladi. Don isrofgarchiligi juda kam bo'lishi uchun bunday o'rimni juda qisqa muddatlarda, ko'pi bilan 5-6 kun ichida amalga oshirish kerak.***

O'rimning alohida usuli - g'alla g'aramlarini yig'ib olish va yanchishda bo'lgani kabi bevosita kombaynlashgan o'rim usulida ham umumiy guruh va yig'im-transport guruhidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Turli tumanlarda qishloq xo'jaligi korxonalarini va xo'jaliklarining mavjud imkoniyatlari, iqlim sharoitlariga qarab, kombaynlashgan usulda sutka mobaynida agregatlarning ishlash davomiyligi turlicha bo'lishi mumkin.

Mahalliy sharoitlardan kelib chiqib, 10 soatlik bir smenali va har biri 8 soatlik ikki smenali ishni tashkil qilish mumkin. Har bir o'rim mashinasidan imkon qadar samarali foydalanish uchun unga bir kombaynchi va yordamchi biriktiriladi. Ular navbatma-navbat ishlashadi va dam olishadi. Ish esa uzluksiz davom etadi.

Kombaynlar va transport vositalarining ishidagi aniq mutanosibligi, o'rilgan g'allani kombayn ishlab turgan paytda transport vositasiga to'kish tufayli kombaynlashgan o'rimda yuksak ko'rsatkichlarga erishish mumkin.

O'rilgan g'allani xirmonlarga jo'natishni shunday tashkil etish kerakki, toki kombaynlar bilan g'allani qayta ishlash majmualari ishida bir tekislik, ya'ni uzluksizlik ta'minlansin. Boshqacha aytganda hosilni yig'ib olish oqimiy texnologiya asosida o'tkazilishi kerak.

O'rilgan va yanchilgan g'allani kombaynlardan xirmonlarga olib ketish avtomashinalarda amalga oshiriladi. G'allani xirmonlarga tashishda agar masofa qisqa bo'lsa, o'zi to'kadigan mashinalardan foydalaniladi. Bunda yukni tushirishga ketadigan vaqt qisqaradi. Masofa olis bo'lsa,

yuk ko'tarish quvvati 4 tonna va undan ortiq bo'lgan prisepli ZIL-150, KamAZ-5410 markali avtomobillardan foydalanish samarali natija beradi traktor priseplaridan ham foydalanish mumkin.

G'allazordagi hosilni yig'ib olish va donni zaruriy joylarga yetkazish uchun mo'ljallangan transport vositalari alohida kombaynlarga emas, balki dalada ishlayotgan barcha kombaynlarga biriktiriladi. Ishni bunday tashkil etish kombaynlar va transport vositalarining bekor turib qolmasligi, uzluksiz ishlashini ta'minlaydi.

### **10.3. G'alla yetishtirishni tashkil etish.**

G'alla yetishtirishda eng ko'p mehnat sarfi qilinadigan jarayonlardan biri, dalalardan g'allani yig'ishtirib olgach, unga keyingi qayta ishlov berishdir. Bu jarayonni oqilona tashkil etish uchun samarali texnologiya va texnika vositalarini tanlash, g'allaga qayta ishlov beruvchi tizimlarning eng maqbul ishlab chiqarish quvvati va hududiy joylashuvini aniqlash, ularning yig'im-terim konveyeri doirasida muvofiq ishlashini to'g'ri belgilash talab etiladi.

G'alla xirmonlarida g'alla keltirilgach, unga donni tozalovchi va qurituvchi turli tipdagi majmualarda so'nggi qayta ishlov beriladi. Quritish uchun majmuaga yuklangan bir partiya donning namligi 4% dan oshmasligi kerak. Xirmonlarning ishlab chiqarish quvvati agregatlarning g'allani o'tkazish imkoniyati darajasi, kelib tushadigan g'alla hajmi va yig'im muddatlariga bog'liq bo'ladi.

***Poxol va somonlarni yig'ishtirib olish. G'alla mahsulot-larining barcha turlariga ishlov berishda hosilning don qismi o'rib bo'lingach, dalada qolgan poxol va somonlarni yig'ishtirib olish ham mehnat sarfi ko'p jarayonlardan biri hisoblanadi.***

G'alla mahsulotlari yetishtiriladigan viloyatlarda poxolni yig'ishtirib olishning asosan uch xil usuli mavjud. Bular: poxolni yaxlit, maydalangan va presslangan ko'rinishlarda yig'ib olishdir.

Turli to'shamalar uchun mo'ljallangan poxol uyumlari g'aramlanadigan joyga keltirilib, baland-baland, katta - katta g'aramlar yasaladi. Zarur paytlarda ulardan keragicha foydalaniladi.

Chorvachilikda ozuqa uchun mo'ljallangan poxollar ham qanday bo'lsa shundayligicha yoki o'roq mashinalarida qirqilgan holda prisepli transportlarga yuklanib, dala chetiga tashiladi va bu yerda qayta g'aramlanadi.

G'alla mahsulotlarining donsiz qismini yig'ishtirib olish uchun ixtisoslashgan zvenolarni tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Amaliyotda bunday evenolarning tarkibi, bajariladigan ishlari hajmi, ularning bajarilish muddati, xo'jalikda poxol yig'uvchi mashinalarning mavjudligi, yig'ishtirish usullari va boshqa imkoniyatlarga qarab belgilanadi. Bunda mehnatni ikki smenada tashkil etish rejadagi ishlarni mo'ljallangan muddatlarda bajarish imkoniyatini beradi.

G'allachilikda o'rim-yig'im ishlarini tashkil qilishning samaradorligi pirovardida ishlovchi kuchi va ishlab chiqarish vositalaridan foydalanishning yakuniy ko'rsatkichlariga qarab belgilanadi.

Mamlakatda mehnatni tashkil qilishning turli shakllaridan foydalaniladi. Bular: dehqon xo'jaliklari, oila pudrati, ishlovchi guruhlar, fermer xo'jaliklari va h.z.lar bo'lishi mumkin. Bu

mehnat jamoalarining har biri g'alla yetishtirishda umumiy mehnat taqsimoti va jamoada o'z o'rniga ega bo'lib, o'ziga tegishli vazifani bajaradi.

G'alla mahsulotlari, odatda, yozning eng issiq davrida pishib yetiladi. Mahalliy sharoitning o'ta issiqligi yetilgan don boshloqlarining to'kilib ketish xavfini tug'diradi. Shu sababli g'alla o'rimi davrida qishloq xo'jaligi jamoalarining deyarli barchasi chetdan transport vositalarini jalb etadilar. Bu xo'jalikka iqtisodiy jihatdan biroz zarar yetkazsada, hosilni o'z vaqtida yig'ib olish va aholini don mahsulotlari, chorvani ozuqa bilan ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

G'alla yetishtirish, ya'ni ishlab chiqarish jarayoni bir necha xildagi turli sikllardan iborat bo'lgani, mavsumiy xarakterga egaligi, ish qa'tiy belgilangan muddatda bajarilishi shart bo'lganligi uchun, ularning ayrim ijrochilari va mehnat jamoalari faqat bir turdagi ishni bajarishga ixtisoslashmasliklari mumkin. Shu sababli ular qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda yilning turli mavsumlarida talab qilinadigan turlicha ishlarni bajarib ketaverishlari, bir necha ixtisosga ega bo'lishlari mumkin.

Yetishtirilgan g'allaning qanday maqsadlarga mo'ljallanganiga qarab, ularni saqlash usuli ham turlicha bo'ladi.

#### **10.4. Sholi yetishtirishni tashkil etish.**

Sholi yetishtirish usullari o'zining xilma-xilligi bilan ajralib turadi. U har xil millatlarning ko'p yillik tajribalari, iqlim sharoiti bilan uzviy bog'liqdir. Sholi yetishtirish asosan ikki xil usulda:

-sholini suv bostirish;

-suv bostirmasdan yomg'irli sug'orish yordamida amalga oshiriladi;

Birinchi usul o'z navbatida ikki yo'nalishdan iborat:

-sholi urug'ini to'g'ridan-to'g'ri dalaga ekish va suv bostirish;

-sholi urug'ini ko'chatxonaga ekish va ko'chatlarni dalaga ekish.

Sholi ekishning birinchi usulida barcha ishlar mexanizatsiyalashtirilgan va kam mehnat talab qiladi. Sholi yetishtirishning ikkinchi usulida asosan, ko'chat usulida sholi yetishtiriladi va to'liq mexanizatsiyalashtirilgan bo'ladi.

Sholini ko'chat usulida yetishtirish bir talay qulaylik va afzalliklarga ega:

-joyning iqlim sharoitidan unumli foydalanish va o'rim yig'imni erta muddatlarda olib borish imkoniyatini yaratadi;

-har bir gektar yerdan unumli foydalanish natijasida ikki marotaba hosil yetishtirishga erishiladi;

ko'chat usulida 60-70% urug'lik sholi, 20-30% suv iqtisod qilinadi va hosildorlik 20-25% ga oshadi;

-ko'chatxonada sog'lom va baquvvat ko'chat yetishtirilib keyinchalik sholining o'sishi va rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratiladi;

-ko'chatxonada sholi kasalliklari va zararkunandalari bilan kurashish osonlashadi; -sholining keyingi rivojlanish bosqichlarini nazorat qilish va ishlov berish uchun qulay sharoit yaratiladi.

Shu bilan bir qatorda bu usul kamchiliklarga ham ega.

Sholi ko'chatini dalaga ekish juda mushkul ish hisoblanadi.

1 gektar maydonga qo'lda ko'chat ekish uchun 130-150 ish kuni sarflanadi.

***Ko'chat usulida ekish uchun qo'llaniladigan navlar. «Alanga». -kechpishar nav, o'suv davri 130 kun. «Lazurniy», «Avangard», O'rta pishar nav, pishish davri 118-120 kun. «Nukus - 2». erta pishar nav, o'suv davri 110-112 kun.***

Qo'lda ekish uchun sholi ko'chati maxsus ko'chatxonalarda tayyorlanadi. Bu maqsadda ajratiladigan maydon kerak paytda suvni tashlash va suv sathini me'yorida ushlab turish uchun boshqa maydonlarga nisbatan balandroq joyda tanlanishi lozim. Ko'chatxonada urug' ekish uchun avvalambor yerni tayyorlashga alohida ahamiyat berish kerak, yer kuzda shudgorlanib, erta bahorda gektariga 40 t organik o'g'it solinib, 15 sm. chuqurlikda yuza haydaladi, so'ngra tekislanadi. Yer tekislangach mineral o'g'itlardan 100m<sup>2</sup> uchun 2-3 kg. ammoviy sulfat to'q holda, 1-1,5 kg. fosfor va 1 kg. kaliy solinadi va tuproqqa aralashtiriladi. Yer ekishga tayyor bo'lgach ekiladigan navning biologik xususiyatini hisobga olgan holda sholi urug'i asosiy ekin

sifatida 1-10 aprel, kuzgi don ekinlaridan bo'shagan yerlarga takroriy ekin sifatida esa 20-30 mayda 100m<sup>2</sup> maydonga o'rtacha 6,5-7,5 kg. hisobida ekiladi. Sholi ko'chatzori asosiy ekiladigan maydonning 1/10 qismini tashkil qilishi kerak ekan. Ko'chatxonaga ekilgan sholi urug'i ertapishar «Nukus - 2» navida 25-30, o'rtapishar «Avangard» navida 30-35 va kechpishar «Alanga» va «Lazurniy» navlarida 35-40 kunligida ko'chat qilish uchun tayyor holga keladi. Ko'chatlarni asosiy maydonga ko'chirishdan bir hafta oldin 5 kg/ga hisobida azot o'g'iti bilan oziqlantiriladi. Bu ko'chatlarning baquvvat bo'lib, tez tugib ketishini ta'minlaydi.

***Sholi ko'chatini mashinalar bilan ekish. Sholi ko'chatini mashinalar bilan ekishga mo'ljallangan bo'lsa sholi urug'i ko'chatxonalariga, maxsus kassetalarga (30x60sm) ekiladi. Birinchi navbatda yer tekislab kassetalarni qo'yish uchun joy tayyorlanadi. Kassetalarga to'ldirish uchun tuproq keltirib elanadi, organik va mineral o'g'it bilan aralastirilib, 2sm qalinlikda bir tekisda solinadi. So'ngra kassetalarga maxsus apparat orqali 250-300 g urug' ekiladi va ustidan 1 sm. qalinlikda to'ldirib joyning relyefiga qarab 2-4 qator qilib joylashtiriladi. Ko'chatxona ustiga plyonka yopilib ko'chatxonaga suv bostiriladi. Bunda dam oldirilib sug'orish yoki yomg'ir latib sug'orish usuli qo'llaniladi. Ob-havo sharoiti noqulay mintaqalarda ko'chatlar maxsus issiqxonalarda yetishtiriladi.***

Ushbu usulda ko'chat yetishtirilganda ertapishar navlar 10-17, o'rtapishar navlar 20 - 25, kechpishar navlar 25 - 27 kunda ekish uchun tayyor holga keladi. Har bir gektar yerga ko'chat yetishtirish uchun 250 ta kasseta talab qilinadi.

Sholi ko'chatini mashinalar yordamida ekishda kechpishar navlar uchun 20x15, o'rtapishar va ertapishar navlar uchun 15x15 sm. sxemada har bir uyaga 2-3 tadan ko'chat ekilishi maqsadga muvofiqdir.

Takroriy ekin sifatida sholini ko'chat qilib ekishda yerni ekishga tayyorlash asosiy ekin sifatida qo'llanilganiga nisbatan farq qiladi. Takroriy ekish uchun yerni tayyorlashda kuzgi g'alla ekinlari o'rib olingan maydonni zudlik bilan g'alla ekinlari qoldig'idan tozalash lozim. Tozalangan maydonlar 18-20 sm. chuqurlikda haydaladi va 10-12 sm. qalinlikda suv bostirilib mola yordamida tekislanadi.

Yer tekislangach suv sathi 5-7 sm. gacha kamaytiriladi va ko'chatxonadan ko'chatlar olib kelinib dalaga o'tkaziladi.

Takroriy ekin sifatida ko'chat ekishda qalinligi asosiy ekin sifatida ekilganga nisbatan qalinroq ekilishi lozim yoki ko'chat ekish sxemasi kechpishar navlari 15x15, o'rtapishar va ertapishar navlar uchun 15x10. sm. qilinib, har bir uyaga 2-4 tadan ko'chat ekiladi.

***Sholichilikda sug'orish tuzimi. Sholikor xo'jaliklarida har qaysi almashlab ekish uchastkasi bo'yicha suvdan foydalanish rejasini tuziladiki, bunda o'n kunlik bo'yicha sug'orish maydoni belgilanib, sug'orish hajmi va suv sarfi aniqlanadi.***

Almashlab ekish massivi bo'yicha vegetasiya davrining har bir kunliklari uchun suv sarfi ana shu tartibda hisob qilinadi. Xo'jalik suvdan foydalanish rejasini tuzishda oqova suvlaridan ekinlarni qayta sug'orishda foydalanish hajmini ham hisobga olish kerak bo'ladi. Rejani tuzishda dastlab ekin maydonlari hamda suv ta'minotida bo'ladigan o'zgarishlarga bog'liq holda tuzatishlar kiritish ko'zda tutiladi.

Aniqlashtirilgan tezkor reja - jadvallar sholipoyalarni dastlabki suvga bostirish davri 15-20 kun uchun tuziladiki, chek va poyalardan ma'lum qalinlikdagi suvni ushlab turush uchun keyingi davrlar bo'yicha unga tegishli o'zgarishlar kiritib boriladi.

Sholipoyalarni 6 gektar maydoniga dastlabki suv bostirish hamda ma'lum qalinlikda suv tutib turish uchun kerak bo'ladigan suvning miqdorini quyidagicha hisoblash mumkin. Sug'orish me'yori 5600 m<sup>3</sup>/ga.

Sholini bostirib sug'orish va suv oqovaga oqizib qo'yiladigan sharoitlar uchun sug'orish me'yori quyidagi ko'rsatkichlarga muvofiq belgilanadi:

A) tuproqning hisobiy qatlamini dala nam sig'imigacha namlash va tuproq ustida ma'lum qalinlikdagi suv qatlamini vujudga keltirish uchun kerak bo'lgan suv miqdori belgilanadi (W1):

B) transpirasiya (T) va yer betidan bug'lanishga sarflanadigan suv miqdori (Ye) va ularning umumiy miqdori (W2) aniqlanadi T+Ye:

V) tuproqqa sizib yo'qoladigan suvning hajmi hisoblanadi (F):

G) oqova suvning hajmi aniqlanadi ( $S_n$ ):

D) betartib oqib va tashlama sifatida sarflanadigan suv hajmi aniqlandi ( $S_n$ ):

Ye) zovur orqali chiqib ketadigan suvlar hajmi hisoblanadi ( $S_o$ ):

#### **10.5. Almashlab ekishni tashkil etish.**

Almashlab ekishni to'g'ri tashkil qilish dehqonchilikning asosiy tarkibiy qismidir. Almashlab ekish deganda ekinlarni vaqt va makonda ma'lum muddatda amalga oshiriladigan ilmiy asoslangan navbatlab turishi tushuniladi. Almashlab ekishning asosiy vazifasi yerlarning unumdorligini tiklash va oshirish, yerlarni turli zararkunandalar, kasallik qo'zg'atuvchilardan tozalash, yovvoyi o'tlardan xoli qilish, mahsulot tannarxini kamaytirgan holda ekinlardan yuqori hosil olishni ta'minlashdir.

Almashlab ekish-dehqonchilik tizimining eng muhim elementi bo'lib, muayyan agrotexnik va tashkiliy-iqtisodiy tadbirlarni o'z ichiga oladi. Tashkiliy-iqtisodiy jihatdan almashlab ekish yerdan, ishlab chiqarish vositalari va mehnat resurslaridan oqilona foydalanishning eng muhim shartidir.

Almashlab ekishning tashkiliy-iqtisodiy mazmuni ekin maydonlarining tizimi bilan ifodalanadi. Bu tizim xo'jalikning tabiiy sharoitlariga va ixtisoslashuviga muvofiq keladi, davlatga mahsulot sotish bo'yicha xo'jalik belgilangan rejaning bajarilishini ta'minlaydi. Almashlab ekishning tashkiliy-iqtisodiy mazmuni, shuningdek, dalalarning maydonini belgilash, ular hududidini to'g'ri joylashtirish orqali ham aks ettiriladi. Bularning hammasi birgalikda ekin yerlari, texnika va mehnat resurslaridan oqilona foydalanishga yordam berishi kerak.

Odatda har bir shirkat xo'jaligining vazifasiga qarab dalachilik almashlab ekishi, ozuqa almashlab ekish va maxsus almashlab ekish kabi bir qancha turlari mavjuddir. Bunda dehqonchilik mahsulotlarining asosiy turlarini yetishtirish hisobga olinadi. Bular birgalikda xo'jalikda ekinlarning to'g'ri uyg'unlashuvini taqozo qiluvchi almashlab ekish tizimini tashkil qiladi.

Dehqonchilikda almashlab ekish maydonning yarmidan ko'prog' don va texnika ekinlari yetishtirish uchun mo'ljallangan. Asosiy ekinga qarab dalachilik almashlab ekishi don, lavlagi, zig'ir, paxta-beda va hokazo almashlab ekish mumkin.

Almashlab ekishda sholidan oldin ko'p yillik va dukkakli o'tlar, dukkakli don ekinlari ekish maqsadga muvofiqdir. Quruqlikda o'suvchi ekinlarni almashlab ekishga qabul qilish uchun tanlash va joylashtirishni puxta o'ylab, sholining xususiyatlarini, dalaning meliorasiya va ifloslanganligini hisobga olgan holda yondoshish kerak.

Respublikada sholi ekuvchi shirkat xo'jaliklariga almashlab ekishning to'qqiz dalali, o'n dalali, olti dalali va yetti dalali sxemalari tavsiya qilinadi, bu sxemalarga muvofiq bitta dalaga uch- to'rt yil qatorasiga sholi ekiladi, keyin esa boshqa ekin bilan o'rin almashinadi.

Misol uchun to'qqiz dalali sxemani olib ko'raylik. 1,2 va 3-paykalarga sholi ekiladi; 4-paykal yozning birinchi yarmida suv ichida yoki quruq holda tekislanadi, yozning ikkinchi yarmida bu yerga don ekiladi; 5,6 va 7-dalalarga sholi; 8-dalaga o'tlar, har xil beda, don uchun kuzgi arpa; 9- dalaga pichan uchun ikkinchi yilga qoldiriladigan o'tlar ekiladi.

Bu almashlab ekish sxemasida maydonning 77,8 foiziga g'alla, shu jumladan 67 foiziga sholi,

11,1 foiziga o'tlar va 11,1 foiziga sideral ekinlar ekiladi.

O'n dalali sxema -1,2,3 va 4-dalaga-sholi, 5-dala yozning birinchi yarmida suv ichida yoki quruq holda tekislanadi, yozning ikkinchi yarmida bu yerga don uchun dukkakli don ekinlar yoki sideratlar ekiladi; 6-,7-,8-dalalarga sholi, 9-dalaga o'tlar, don ekinlari (arpa va hokazolar) ekiladi. 10-dalaga pichan uchun ikkinchi yilga qoldiriladigan o'tlar ekiladi. Bu sxemada maydonning 80%iga g'alla, shu jumladan 70 foiziga sholi, 10 foiziga o'tlar va 10 foiziga meliorativ siderat ekinlar ekiladi.

Almashlab ekish maxsus agrotexnikani talab qiladigan ekinlarni (sabzavot, poliz, sholi, kanop va hokazo) yetishtirish uchun mo'ljallanadi. Tuproqni himoya qilish va erroziyaga qarshi almashlab ekish dalalari alohida tur bo'lib, odatda don va ozuqa ekinlari bilan band bo'ladi,

ularda dam berib qo'yilgan yerlar bo'lmaydi va chopiladigan ekinlar yetishtirilmaydi. Maxsus almashlab ekish tuproq haqiqatda erroziyaga uchragan va uchrashi mumkin bo'lgan maydonlarda joriy qilinadi.

Almashlab ekishdan kuzatilgan maqsad yer unumdorligini tiklash va oshirish, hosilni ko'paytirish, chorva mollari uchun mustahkam yem-xashak bazasi yaratishdir. Shu munosabat bilan xo'jaliklarni har tomonlama rivojlantirish, turli tarmoqlarni bir-biriga bog'lab olib borish bilan hamma turdagi ekinlardan yuqori hosil olish, mollar tuyog'ini ko'paytirish va ularning mahsuldorligini oshirish, qishloq xo'jaligi texnikasidan, shuningdek, ish kuchlaridan, material vositalaridan unumli foydalanish uchun qulay sharoit yaratish kabi talablarga javob berishi kerak.

Xo'jaliklarda almashlab ekish sxemalari va dalalar hajmi tuproq turlari, xo'jaliklarning katta-kichikligi, suvdan, ishlab chiqarish vositalaridan, ish kuchidan to'g'ri foydalanishni hisobga olgan holda belgilanadi. Paxtaga ixtisoslashgan xo'jaliklar tajribasidan ma'lumki, yerni to'g'ri ishlab va o'g'itlab paxta-beda-makkajo'xori va siderat ekinlar almashlab ekish usuli qo'llanilsa, tuproqning unumdorligi ortadi hamda paxta va boshqa ekinlaridan mo'l hosil olinadi.

Maydon birligidan maksimal miqdorda xilma-xil ozuqalar olish maqsadida bedani silos uchun makkajo'xori va oq jo'xori hamda don uchun boshqali ekinlar bilan birgalikda qo'shib ekish tavsiya qilinadi. Sho'rangan tuproq sharoitida bedani ko'p marta o'riladigan raygras bilan aralashtirib ekish maqsadga muvofiqdir. Tuproq-iqlim sharoitiga va xo'jalikning chorvachilik uchun pichan, silos va don yetishtirishga bo'lgan ehtiyojini hisobga olib, paxta almashlab ekiladigan dalalarda ozuqa ekinlarini birga qo'shib yetishtirish mumkin.

Almashlab ekishni joriy qilish masalasini hal qilish vaqtida shunday sxemalarni tanlash zarurki, ular paxta yetishtirish bo'yicha davlat topshiriqlarini bajarishni ta'minlashi, xo'jalikning tuproq sharoitiga ancha to'liq javob berishi, tuproqning unumdorligini va paxta hosildorligini oshirish vazifalarini muvaffaqiyatli hal qilishi, chorvachilikni zarur miqdorda beda pichani, silos va konsentratlar bilan ta'minlashi kerak. Paxtani almashlab ekishning xilma-xil tuproq-iqlim sharoitlari uchun tavsiya qilingan sxemalari va bedani uyg'unlashtirib ekish yuqorida sanab o'tilgan talablarga javob beradi. Biroq, ayrim almashlab ekishlar qanchalik yaxshi bo'lmasin, zamonaviy agrotexnika tadbirlarining butun majmuini joriy etmasdan turib, hosildorlik, xo'jalikning rentabelligi, uning daromadini oshirish masalalarini hal qila olmaydi. Shuning uchun almashlab ekishni joriy qilish dehqonchilik ekinlari hosildorligini oshirishni, mineral va organik o'g'itlarni, tuproqqa ishlov berish va sug'orish ishlarini to'g'ri qo'llanishini, paxtaning eng yaxshi, serhosil navlarini, beda va paxta majmuaidagi boshqa ekinlarning serhosil navlarini yetishtirishni, sho'rangan yerlarda esa meliorasiya tadbirlarini o'tkazishni shart qilib qo'yadi.

Muvofiqlashtirishning vazifasi, bu ko'zlangan tartib va funksiyaning sharoitiga bog'liq. Mo'l mahsulot yetishtirishga tuproq unumdorligini oshirish evaziga erishiladi.

Takroriy ozuqa ekinlarining ekilishi o'z navbatida tuproq unumdorligini oshirishga imkon yaratadi. Bundan tashqari beda va bir yillik ozuqa ekinlar chorvachilik ozuqa bazasini mustahkamlashga, organik o'g'itlarning ko'payishiga, pirovardida boshqa ekinlar hosildorligining ortishiga qo'shimcha omil bo'ladi.

Amalda almashlab ekish davrini 5 yildan 3 yilga qisqartirish mumkin. Bunga erishish uchun paxta maydonini qisqartirib, beda maydonlarini me'yoridan oshirish talab etiladi. Lekin bunda paxta xomashyosi o'rnini qoplashda qiyinchiliklar tug'iladi, shuning uchun almashlab ekish davrini uch yilga qisqartirishning imkoni chegaralangan besh yillik o'tish davrida esa shudgorlangan

bedazorlar uchinchi yili samara berib, paxta maydonlari qisqarishi evaziga kamaygan paxta xomashyosi o'rni qoplana boshlaydi.

Shunday qilib, beda maydonlarini kengaytirish va almashlab ekishni joriy qilish tuproq unumdorligini oshirishning asosiy mezoniga aylanadi. Yuqoridagi tadbirlarni amalga oshirish hech qanday qo'shimcha moliyalashtirishni talab qilmaydi. Beda tuproq unumdorligini oshirishga, yerlarning meliorativ holatini yaxshilashga, tuzlarning yuvilishi va sizot suvlarining pasayishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bedazorlarning kengaytirilishi chorvachilik ozuqa bazasini

mustahqamlashga, go'sht, sut mahsulotlari yetishtirishning ko'payishiga olib keladi. o'z navbatida chorva mollari ko'payishi hisobiga organik o'g'itlar ko'proq to'planadi. Bu esa tuproq unumdorligini oshirishning qo'shimcha omili hisoblanadi. Hisob-kitoblarga ko'ra tumanda sug'oriladigan maydonlar samaradorligini oshirish tufayli har gektardan olinadigan daromad 19,3 ming so'mga ortadi, bu tuman bo'yicha 208,1 mln so'mni tashkil etadi.

Sholiga ixtisoslashgan xo'jaliklarda ko'proq to'qqiz dalali almashlab ekish qabul qilingan. Bunda birinchi va ikkinchi dalaga sholi ekiladi, uchinchi dalaga makkajo'xori, to'rtinchi va beshinchi dalaga-sholi; oltinchi dalaga don olish uchun soya; yettinchi va sakkizinchi dalaga-sholi; to'qqizinchi dalaga-bir yillik o't ekiladi.

#### **Nazorat uchun savollari:**

1. Don ishlab chiqarish davlat dasturining maqsadi va vazifalari;
2. Me'yor bo'yicha talab qilinadigan don va don mahsulotlar miqdori;
3. Don ishlab chiqarishning (xosildorlik, yalpi xosil) hozirgi axvoli;
4. Davlat dasturida ko'zda tutilgan sholichilik va makkajo'xori yetishtirish
5. marralari;
6. Don ishlab chiqarishda almashlab ekishning axamiyati va sxemasi;
7. Don yetishtirishda o'gitlash me'yorlari va rejalashtirish;
8. Yumshoq kuzgi bugday navlari va ularni ekish muddati;
9. Jadal tipdagi unumli bugday navlari va ularni ekish muddati;
10. Donlarni sugorish muddatlari va me'yorlari;
11. Xosildorlikni aniqlash uslubi va rejalashtirish;
12. Xosilni yigishtirish shartlari, muddati, kombaynlar afzalligi;
13. Don ishlab chiqarishda mexnatni tashkil qilish tamoyillari;
14. Paykal usulida yer xaydashni rejalashtirish, paykal kengligini aniqlash formulasi;
15. Moki usulida yer xaydashni afzallik tomonlari;
16. Seyalkaga urug'lik to'ldirishni aniqlash formulasi;

#### **GLOSSARIY**

**ALMASHLAB EKISH** - ekinlarning yillar davomida ma'lum dalalarda rejali tartibda navbati bilan almashib turilishi.

**DAVLAT BUYURTMALARI** - davlat tomonidan muayyan mahsulot turini (hozirgi kunda paxta va g'allani) yetkazib berish bo'yicha qishloq xo'jaligi korxonalarini bilan tuzilgan shartnoma- topshiriq.

**DEHQONCHILIK TIZIMI** - dehqonchilik mahsulotlari yetishtirish uchun yerdan to'la foydalanish, tuproq unumdorligini oshirishga qaratilgan, o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldiradigan tashkiliy-agrotexnik tadbirlar yig'indisi.

**HOSILDORLIK** - bir birlik ekin maydoni (gektar, sotix va boshqa) hisobiga yetishtirilgan hosilning fizik miqdori.

**ICHKI MILLIY MAHSULOT** - bir yil davomida mamlakatda yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan ishlab chiqarilgan pirovard mahsulot va xizmatlarning bozor bahosidagi qiymati.

**IQTISODIY SAMARADORLIK** - cheklangan resurslardan unumli foydalanib, tovar va xizmatlarga bo'lgan jamiyatning cheksiz talabini maksimal qondirishdir.

**TEXNOLOGIK KARTA** - ayrim ekin turlari bo'yicha mahsulot yetishtirish bilan bog'liq ishlarni tashkil qilishda korxonaning mashina va uskunalarga, ishchi kuchlari va mehnat xarajatlariga,

yoqilg'i va moylash materiallariga bo'lgan talabi, mexanizatsiya ishlarining hajmi, traktor va qishloq xo'jaligi mashina va uskunalari bo'lgan talab rejalashtiriladigan ish hujjati.